Toshkent
kimyo-texnologiya
instituti

# BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI

10 TENGSIZLIKNI QISQARTIRISH

10.6.3 - Sizning universitetingiz kam vakillik guruhlaridan talabalar/xodimlar/o'qituvchilarni ishga yollash bo'yicha rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshiradimi?

Toshkent kimyo-texnologiya instituti talabalar, xodimlar va imkoniyati cheklangan shaxslarga turli ta’lim dasturlari, amaliyotlar, moddiy rag‘batlantirish va turli ijtimoiy yordam tashabbuslari orqali yordam ko‘rsatadi. Bundan tashqari, institut tenglik, xilma-xillik va inklyuziya masalalariga bag'ishlangan tadbirlarni tashkil qiladi.

Talabalar va xodimlarni o'qitish va tayyorlashda xalqaro hamkorlik dasturlari ishga tushirilgan.

**Xalqaro akademik almashinuv dasturlari**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti talaba va professor-o‘qituvchilari institutlararo tuzilgan shartnomalar asosida xalqaro akademik almashinuv dasturlarida ishtirok etishi mumkin.

Akademik almashinuv dasturi – o’z yo’nalishi boyicha 1 yoki 2 semestr davomida horijiy universitetida ta’lim olish imkoniyatini beradi (shartnomaga binoan to ‘liq yoki qisman transport va o‘quv harajatlari qoplanishi va stipendiya berilishi mumkin).

| **Davlat** | **OTM nomi** | **Ishtirok etuvchilar** |
|---|---|---|
| **ERASMUS + AKADEMIK ALMASHINUV DASTURI** | | |
| **Daniya** | **Kopengagen universiteti** | **O`qituvchi, doktorantlar** |
| **Polsha** | **Sileziya texnologiya universiteti** | **O`qituvchi, doktorantlar** |
| **Polsha** | **AGH Fan va texnologiya universiteti** | **Talabalar, o`qituvchilar** |

| | | |
|---|---|---|
| | | |
| **Polsha** | **Olstindagi Warmiya-Mazuri universiteti** | **O`qituvchi, doktorantlar** |
| **Ispaniya** | **Kantabriya universiteti** | **Talabalar (bakalavriat, magistratura, doktorantura)** |
| **Ispaniya** | **Oviedo universiteti** | **O`qituvchi, doktorantlar** |
| **Ispaniya** | **Ekstramadura universiteti** | **O`qituvchi, doktorantlar** |
| **Italiya** | **Turin politexnika universiteti** | **Talabalar, o`qituvchilar** |
| **Chexiya** | **Chexiya tabiiy fanlar universiteti** | **Talabalar (qisman moliyalashtirish)** |
| **Ruminiya** | **1 Decembrie 1918 Alba Yuliya universiteti** | **Talabalar, o`qituvchilar** |
| **Ruminiya** | **Vest Timisoara universiteti** | **Talabalar, o`qituvchilar** |
| **Bolgariya** | **"Neofit Rilski" Janubiy-Garbiy universitet** | **O`qituvchi, doktorantlar** |
| **GIZ LOYIHASI** | | |

| | | |
|---|---|---|
| **Latviya** | **Latviya tabiiy fanlar va texnologiyalar universiteti** | **Talabalar, o`qituvchilar** |
| **MEVLANA AKADEMIK ALMASHINUV DASTURI** | | |
| **Turkiya** | **Aydin Adnan Universiteti**<br><br>**Koniya texnika universiteti** | **Talabalar, o`qituvchilar** |
| **O ‘zaro akademik almashinuv dasturlar** | | |
| **Koreya Respublikasi** | **Kumoh milliy texnologiya instituti** | **Talabalar** |
| **Qozog'iston** | **M.Auezov nomidagi Janubiy-Qozog'iston universiteti** | **O`qituvchi, doktorantlar** |
| **Qozog'iston** | **Al-Farobiy nom. Qozog'iston milliy universitet** | **Talabalar, o`qituvchilar** |


Erasmus+
ACADEMIC EXCHANGE PROGRAMS
Evropa Ittifoqi "Erasmus+ ICM (KA107) projects mobility" akademik almashinuv dasturlari:
Toshkent kimyo-texnologiy instituti
Taskent Chemical-Technological Institute
http://tkti.uz/en
Kantabriya universiteti (Ispaniya)
UC
University of Cantabria (Spain)
https://web.unican.es/
Oviedo Universiteti (Ispaniya)
University of Oviedo (Spain)
http://www.uniovi.es/en/
Kopengagen Universiteti (Daniya)
University of Copengagen (Denmark)
https://www.ku.dk/english/
Sileziya texnologiya universiteti (Polsha)
Silesian University of Technology (Poland)
https://www.polsl.pl/en/
Pragadagi Chexiya tabiiy fanlar universiteti (Chexia)
Czech University of Life Sciences Prague (Czech Republic)
https://www.czu.cz/en/
"1 Decembrie 1918" Alba Iulia universiteti (Ruminiya)
UAB
"1 Decembrie 1918" University of Alba Iulia (Romania)
http://en.uab.ro/
West Timisoara Universiteti (Ruminiya)
West University of Timişoara (Romania)
https://www.uvt.ro/en/
Turkiya bilan Mevlana akademik almashinuv dasturi:
Aydın Adnan Menderes Universiteti (Turkiya)
Aydın Adnan Menderes University, Turkey
https://www.adu.edu.tr/en/
Xitoy Xalq Respublikasi bilan akademik almashinuv dasturi:
Shandun Fanlar Akademiyasining Avtomatika instituti
Automation Institute of Shandon Academy of Sciences
http://english.sdas.org/
Shandun Fanlar Akademiyasining Biologya instituti
Biology Institute of Shandon Academy of Sciences
http://www.sdbiology.com/en/

Toshkent
kimyo-texnologiya
instituti

THE IMPACT RANKINGS

# Talabalar bandligini ta’minlash maqsadida turli korxona va tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlar olib borilmoqda.

2022 yil, 18-noyabr kuni Yoqilg'i va organik birikmalar kimyoviy texnologiyasi fakultetida “Merit chemicals” korxonasi va talabalar o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvni fakultet dekani M.Vapayev ochib berdi.
"Merit chemicals" korxonasi HR xodimlari talabalarni mavjud bo‘sh ish o‘rinlari hamda korxonada turli yo'nalishlarda malaka oshirishlari mumkinligi haqida batafsil ma'lumot berishdi.
Bundan tashqari, korxona vakillari korxonadagi ish jarayonlari qay tarzda bo‘lishi va ishchi jamoa haqida ma’lumotlar berib o‘tdi.
Tadbir davomida talabalar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga korxona vakillari tomonidan javoblar olishdi.
Tadbir so‘ngida “Merit chemicals” korxonasi institutga o‘z minnatdorchiligini bildirib, o'tgan bir yil davomida “Merit chemicals” korxonasi tanlovlar, savol-javoblari davomida 5 nafar ishga qabul qilinganligi va oktabr oyida bo‘lib o‘tgan saralash jarayonida 2 nafar talaba malaka oshirishlari uchun tavsiya asosida korxonaga qabul qilinganliklari haqida ta'kidlab o'tdilar.
Korxona Marketing va talabalar amaliyoti bo‘limi boshlig‘i Abduraxmon Mirkomilovga amaliy yordamlari uchun “Tashakkurnoma” bilan taqdirladi.

https://www.facebook.com/100063678666743/posts/563682385764379/?mibextid=rS40aB7S9Ucbxw6v



"Merit chemicals" korxonasi HR xodimlari talabalarni mavjud bo‘sh ish o‘rinlari haqida batafsil ma'lumot berishdi.



5 ta talaba ishga qabul qilindi va 2 nafar talab amalaka oshirishlari uchun tavsiya etildi



Korxona Marketing va talabalar amaliyoti bo‘limi boshlig‘i Abduraxmon Mirkomilovga amaliy yordamlari uchun “Tashakkurnoma” bilan taqdirladi.

Toshkent
kimyo-texnologiya
instituti

Toshkent kimyo-texnologiya institut 2022 yilda bir qancha bo’limlar bilan hamkorlikda ijtimoiy va moddiy yordamga muhtoj talabalar, xodimlar va jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarga moddiy yordam ko‘rsatildi.

Jami xarajat 833 million so‘mni tashkil etib, axborot-kommunikatsiya vositalarini sotib olishga yo‘naltirildi.

Shuningdek, to‘lov-kontrakt asosida o‘qishni davom ettirayotgan, o‘quv semestr yakunida fanidan a’lo natijalarga erishgan 342 nafar talabaning stipendiyalariga 20% qo‘shimcha to‘lov-kontrakt sifatida 275 million so‘m ajratilgan.

Ijarada istiqomat qilayotgan 959 nafar kam ta’minlangan talabalarning 792 million so‘m miqdorida ijara to‘lovlari to‘lanishiga yo‘naltirildi.

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan O‘zbek Milliy akademik drama teatrida bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi va unda 40 nafar ayol xodimga esdalik sovg‘alari va faxriy yorliqlar topshirildi. Institutda faoliyat yuritayotgan barcha ayollar o‘rtasida jami 117 million so‘m, jumladan, 200 000 so‘m pul mukofoti taqsimlandi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj iqtidorli va ijtimoiy faol talabalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 354 nafar talabaning 371 ming so‘mlik stipendiyalariga 50 foizlik qo‘shimcha to‘lov to‘lash uchun 329 million so‘m ajratildi.

Shuningdek, talabalar bandligini ta’minlash maqsadida talabalar turar joyida maishiy xizmat ko‘rsatish sexlari, jumladan tikuvchilik sexi, kir yuvish sexi, poyabzal ta’mirlash ustaxonasi tashkil etilib, shartnoma asosida 10 nafar talaba ishga qabul qilindi.